

O`ZBEISTON RESPUBLIKASIOLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO`LIMI BIOLOGIYA
YO`NALISHI

KURS ISHI

Mavzu: BIOXILMA-XILLIKNI ASRASHNING MILLIY
STRATEGIYASI VA MILLIY HARAKAT REJASI

Bajardi: Ismoilov K.

Tekshirdi: Nomozova Z.

Samarqand-2015

MAVZU: BIOXILMA-XILLIKNI ASRASHNING MILLIY STRATEGIYASI VA MILLIY HARA-KAT REJASI

Reja

Kirish.....	3
Asosiy qism	
1.Bioxilma-xillikni saqlash—barqaror rivojlanish omili.....	4
1.1 Bioxilma-xillikni asrashning milliy strategiyasi.....	6
1.2Milliy strategiyani shakllantirish	7
1.3 Strategiyaning maqsad va vazifalari.....	7
2. Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimining tahlili.....	8
2.1 Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining tushunchasi va xususiyatlari	9
2.2 Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy turlari.....	10
3. Bioxilma-xillikni asrashning milliy harakat rejasi.....	18
3.1Harakat rejasi, maqsadlari, hal qilish yo'llari.....	23
3.2 Bioxilma-xillik resurslaridan barqaror foydalanish.....	26
3.3 Qo'riqxonalar misolida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi. barqarorligini ta'minlash.....	29
Xulosa.....	31
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	34

KIRISH

Biologik xilmaxillik” deganda yerda, dengizda va boshqa ekotizimlarda yashaydigan hamda o’sadigan hamma jonli organizmlar tushunilib, ushbu tushunchaga bitta tur doirasidagi, turlararo va ekotizimlar xilmaxilligi ham kiradi(*Bioxilmaxillik to’g’risidagi konventsiyaning 2-moddasi*)

Bioxilmaxillik resurslarining kamayishi birinchi navbatda inson faoliyati ta’sir oqibatida yuz beradi. Oxirgi 50 yil ichida sayyoramiz aholisi soni 3,5 barobarga, iste’mol qilinayotgan ichimlik suv hajmi 11 barobarga, haydaladigan yerlar maydoni 2 martaga, ro’yxatdan o’tgan transport vositalari soni 10 martaga, neft mahsulotlaridan foydalanish 7 martaga, elektr stantsiyalari quvvati 21 martaga oshdi. Hayvonot va o’simlik olami turlari esa 20 foizga kamaydi. Har yili atmosfera havosiga 5 milliard tonna karbonad angidrid gazi, 200 million tonna uglerod oksidi, 146 million tonna sulfat oksidi, 35 million tonna azot oksidi tashlanmoqda. Insonning nooqilona faoliyati natijasida biosferada ko’plab qaltis jarayonlar sodir bo’lmoqda. Birgina Orol fojiasi insonning ekologik muammolarga nisbatan mas’uliyatsizligining yaqqol namunasidir. So’nggi qirq yil mobaynida dengiz maydoni 7 martadan ortiqroqqa qisqardi, suv hajmi esa 13 barobarga kamaydi. Uning minerallashuvi bir necha o’n martaga oshgani sababli dengizda jonli organizmlar uchun noqulay muhit vujudga keldi. Natijada dengiz flora va faunasining barcha turlari yo’q bo’lib ketdi. Bugun Orolbo’yi hududlarida nafaqat global ekologik, balki murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo’ldi.

Kech bo’lsa-da, insoniyat tabiiy muhitga ehtiyotkorona va oqilona munosabatda bo’lish kerakligiga ishonch hosil qildi. Ekologik muvozanatni saqlash barcha davlatlardan kuchli iroda va katta siyosiy kuchni ishga solishni talab etmoqda. 1992 yilning iyun oyida Rio-de-Janeyro shahrida bo’lib o’tgan Atrof-muhit va rivojlanish bo’yicha BMT konferensiyasida XXI asrda insoniyatning rivojlanishi uchun muhim bo’lgan hujjatlar qabul qilindi. Mazkur anjumanda ilk marta tabiatdan foydalanishning amaldagi bozor-iste’moli modeli insoniyatni juda tezlikda tabiat inqiroziga, hatto halokatga olib kelishi mumkinligi to’g’risidagi muhim xulosaga kelindi.

Anjumanda ikkita xalqaro bitim imzolandi hamda Butun jahon barqaror rivojlanish maqsadlari prinsiplari va Asosiy Harakatlar rejasi to’g’risidagi ikkita bayonot qabul qilindi. Bu o’rinda “Biologik xilmaxillik to’g’risida”gi Konventsiya muhim ahamiyatga ega bo’lib, ushbu hujjat talablariga binoan uni imzolagan barcha tomonlar ekotizimlar va tabiiy yashash joylarini, turlar populyatsiyalarini saqlash uchun barcha choralarni ko’rishi, milliy qonunchilikni takomillashtirishi, yo’qolib borayotgan biologik turlarni saqlash va tiklash bo’yicha harakatlar rejasi va boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishi lozim. Shu bilan birga, biologik xilmaxillik komponentlaridan barqaror foydalanishni ta’minlash hamda genetik resurslardan foydalanish va tegishli texnologiyalarni almashish bilan bog’liq daromadlarni adolatli taqsimlash zarur.

“XXI asr kun tartibi” — kelgusi yuz yillikka mo‘ljallangan, Rio-de-Janeyro shahrida 170 dan ortiq davlat vakillarining umumiy kelishuvi asosida qabul qilingan ulkan dastur hisoblanadi. Barcha davlatlar tomonidan qabul qilinadigan, kelajakda atrof-muhitga ta’siri bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qarorlari Rio deklaratsiyasida mustahkamlangan asosiy tamoyillarga asoslanishi shart.

Vaqt o‘tishi bilan “barqaror rivojlanish” tushunchasi barqaror ekologik rivojlanishga tenglashdi. Barqaror rivojlanish Kontsepsiyasi 2002 yil sentyabr oyida Yoxannesburgda bo‘lib o‘tgan BMTning Ming yillik Sammitida yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘sha sammitda butun dunyo mamlakatlari rahbarlari qashshoqlikka barham berish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun BMTning Ming yillik rivojlanish deklaratsiyasini qabul qildilar.

2002 yilning aprel oyida Gaga shahrida bo‘lib o‘tgan “Biologik xilmaxillik to‘g‘risida”gi Konventsiya tomonlarining VI anjumanida “O‘simliklarni saqlash global strategiyasi” qabul qilindi. Uning asosiy va uzoq muddatli maqsadi o‘simlik xilmaxilligining uzluksiz qisqarib borishini to‘xtatishdir. Shu maqsadda ushbu dasturga genetik xilmaxillik, sistematika va taksonomiya, ekologik va biologik usullar bilan o‘simliklarni himoya qilish masalalar bo‘yicha ham yovvoyi tabiat, ham inson faoliyati sharoitida ilmiy tadqiqotlarni olib borishga yordam ko‘rsatish kabi vazifalar kiradi.

1. Bioxilma-xillikni saqlash—barqaror rivojlanish omili

Tabiatni muhofaza qilish hamda barqaror rivojlanish uchun biologik xilmaxillikni saqlab qolishning o‘ta muhimligiga katta ahamiyat bergan holda, 1995 yilda O‘zbekiston Respublikasi “Biologik xilmaxillik to‘g‘risida”gi Konventsiyaga a‘zo bo‘ldi. 1998 yili hukumatimiz tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining biologik xilmaxillikni saqlash bo‘yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasi”ning qabul qilinishi asnosida Konventsiya doirasidagi majburiyatlarni bajarish yo‘lida ilk qadam tashlandi. Mamlakat umumiy maydonining 10 foizidan ortig‘ida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning barqaror tizimini yaratish mazkur strategiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

“O‘zbekiston Respublikasining biologik xilmaxilligini saqlash bo‘yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasi”ni bajarishga yo‘naltirilgan “G‘arbiy Tyan-Shanda biologik xilmaxillikni saqlash bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida”gi, “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi, “O‘simliklar karantini sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi hukumatlararo bitimlar imzolandi. Hukumat tomonidan 2008 yil 19 sentyabr kuni qabul qilingan “2008-2012 yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha harakat dasturi”da ham biologik xilmaxillikni saqlash tabiatni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida aks etgan.

O‘zbekistonning yuqorida qayd etilgan Konvensiyaga qo‘shilishi biologik xilmaxillikni saqlash, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini

takomillashtirish sohasida tashqi investitsiyalarni jalb qilish hamda xalqaro moliyaviy manbalardan foydalanishga keng yo‘l ochib berdi. Hozirgi paytda mamlakatimiz bioxilmaxillikni saqlash masalalari bo‘yicha bir qator xalqaro moliya institutlari va tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Konventsiya doirasida respublikada “G‘arbiy Tyan-Shanning bioxilmaxilligini saqlab qolish bo‘yicha transchegaraviy loyiha” amalga tatbiq etildi. Loyiha mablag‘lari Chotqol biosfera qo‘riqxonasi va Ugom-Chotqol milliy bog‘i infratuzilmasini yaxshilashga yo‘naltirildi. Bundan tashqari, mintaqaviy miqyosda (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston) biomintaqaviy rejani tuzish bo‘yicha ishlar olib borilyapti. Shuningdek, GEF va BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda bioxilmaxillikni saqlab qolish uchun model sifatida Nurota-Qizilqum biosfera rezervatini tashkil etish” va “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo daryosi del’tasi to‘qay o‘rmonzorlarini saqlash va muhofaza etiladigan hududlar tizimini mustahkamlash” loyihasi amalga oshirildi.

1997 yildan boshlab O‘zbekiston “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risida”gi Konvensiyani(Vashington, 1973 yil) imzolagan tomon sifatida respublika hududidan qo‘riqlanadigan turlarni olib chiqish va respublikaga olib kirishga ruxsat berish tizimini joriy etib, savdo operatsiyalarini litsenziyalashtirish, hayvonlar va o‘simliklarni olib kirish va olib chiqishning doimiy nazoratini yo‘lga qo‘ydi.

“Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish bo‘yicha Konvensiya (Bonn, 1979 yil) doirasida Jizzax viloyatidagi “Tuzkon”, Buxoro viloyatidagi “Dengizko‘l” va “Qoraqayiro Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “Oqushpa” ko‘llarida ornitologiya qo‘riqxonalari yaratildi. Samarqand, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarining cho‘l tumanlarida yo‘qolib borish xavfi ostidagi qush — tuvaloqning uyalashi, ko‘payishi va uchib o‘tish joylarini hamda Ustyurt platosida ko‘chib yuruvchi sayg‘oqlarning populyatsiyasini muhofaza qilish maqsadida buyurtmaxonalar tashkil etildi.

O‘zbekistonda bioxilmaxillik qisqarishining ekologik muammolari taranschegaraviy xarakterga ega. Shu bois, respublikamizda fauna ob‘ektlarini muhofaza qilish va saqlash maqsadida Qozog‘iston bilan “Sayg‘oqni saqlab qolish, tiklash va undan barqaror foydalanish bo‘yicha hamjihatlik haqidagi Memorandum va Harakat rejasi” imzolandi. Shuningdek, Afrika — Yevroosiyoda ko‘chib yuruvchi suv-botqoq qushlarini muhofaza qilish bo‘yicha bitim imzolangan bo‘lib, mamlakatimiz “Suvda suzuvchi qushlarni va Markaziy Osiyo uchish yo‘lidagi suv-botqoq hududlarini muhofaza qilish strategiyasi”ni ishlab chiqish loyihasida ishtirok etdi. “Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq joylari to‘g‘risida”gi Konvensiya (Ramsar, 1971 yil) talablarini bajarish va respublikada suv-botqoq hududlari bioxilmaxilligini saqlash maqsadida aniq yo‘naltirilgan ishlar olib borilmoqda. Tayyorlangan hujjatlar asosida “Dengizko‘l” va “Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimi xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq hududlari sifatida Ramsar ro‘yxatiga kiritildi. Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish xalqaro fondi (WWF) bilan

hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “Sudoch‘ye” ko‘li bioxilmaxilligini muhofaza qilish va monitoringi bo‘yicha loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida mazkur ko‘lni xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq hududlari ro‘yxatiga kiritish uchun asosli hujjatlar tayyorlandi.

Respublika Fanlar akademiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston florasida o‘simliklarning 4600 dan ortiq turi mavjud. Ularning 3000 dan ortiq turi yovvoyi holda o‘sadi. Respublika faunasi 97 tur sutemizuvchilar, 424 tur qushlar, 58 tur sudralib yuruvchilar, 83 turdagi baliqlardan iborat. Bu yurtimiz flora va faunasi naqadar boy ekanligidan dalolat beradi.

O‘simlik va hayvonot dunyosi ob‘ektlaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida Fanlar akademiyasining Bioxilmaxillikdan foydalanish bo‘yicha Idoralararo komissiya tomonidan 1991 yildan boshlab hayvonot dunyosini tabiatdan olishning ruxsat etilgan kvotalari, 1993 yildan esa o‘simlik xomashyosini tayyorlash bo‘yicha kvotalari o‘rnatildi.

1.1 Bioxilma-xillikni asrashning milliy strategiyasi

1996 yilda O‘zbekiston BMTning Biologik Xilma-Xillik Konventsiyasida belgilangan majburiyatlarini bajarib, Global Ekologik Fond tomonidan mablag‘ bilan ta‘minlangan loyihani boshladi. Bu loyiha 1998 yilda Hukumat tomonidan ma‘qullangan Biologik Xilma-Xillikni Saqlash Strategiyasi va Amaliy Rejasini paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu hujjat O‘zbekistonda atrof muhit sohasida qabul qilingan dastlabki muhim siyosiy va rejalashtirish hujjati, Biologik Xilma-Xillikni Saqlash Strategiyasi va Amaliy Rejasi bo‘yicha O‘rta Osiyoda tayorlangan va ma‘qullangan dastlabki hujjat bo‘ldi. Biologik Xilma-Xillikni Saqlash Sekretariati barcha hukumatlar biologik xilma-xillikni saqlash borasidagi faoliyatida zarur axborot va texnologiyaga ega bo‘lish imkoniyatini yaratib, xalqaro «Vositachilik Mexanizmi»ni tayinladi.

Maqsadlar

Biologik Xilma-Xillikni Saqlash Strategiyasi va Amaliy Rejasini tadbiq qilish borasida bor imkoniyatini aniqlash orqali hukumatga biologik xilma-xillikni saqlash Konventsiyasidagi majburiyatlarini samaraliroq bajarishga yordam berish. Bunga qo‘shimcha ravishda, loyiha BXXS Sekretariatidagi xalqaro markazga bog‘langan biologik xilma-xillikni saqlash axborot boshqaruvi uchun samarali milliy Vositachilik Mexanizmi tizimini o‘rnatishda hukumatga yordam beradi.

Kutilayotgan natija

Quyidagi to‘rtta ustuvor soha ichida Biologik Xilma-Xillikni Saqlash Strategiyasi va amaliy rejasini tadbiq qilishga aloqador imkoniyatlarini aniqlash:

(I) Milliy rejalar, strategiya va qonunchilikni o‘z ichiga olgan holda manbalardan unumli foydalanish va biologik xilma-xillikni saqlashning umumiy chora-tadbirlarini tadbiq qilish;

(II) Hayvonot va o‘simlik dunyosini tasniflashni o‘z ichiga olgan holda, boshqaruv dasturlarini baholash;

(III) Rag'batlantirish chora-tadbirlarini va tadbiriq qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;

(IV) Daromadni bo'lish va genetik manbalarga aloqador institutsional kadr imkoniyatlarini va mavjud siyosat chora-tadbirlarini baholash.

Biologik xilma-xillikni aniqlash menejerlari va siyosatchilarning haqiqiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan moliyaviy va texnik jihatdan yashovchan boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish;

1.2 Milliy strategiyani shakllantirish

Biologik xilma-xillik axborotini boshqarish va tarqatish uchun O'zbekistonda milliy Vositachilik Mexanizmini tayinlash. Buning ichiga davlat agentliklari, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, ta'lim va trening loyihalarini tadbiriq qilish uchun fuqarolik jamiyati o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish uchun Internet asosida interfeysni yaratish; ilmiy hamkorlik; mablag' bilan ta'minlash imkoniyatlaridan foydalanish; texnologiyadan foydalanish va uni o'tqazish; va BXXS Sekretariati bilan axborot almashish kiradi.

Olib borilgan tahlil natijasida asosiy muammolar belgilanib olindi, bioxilma - xillikni asrashning milliy strategiyasi xuddi ana shu masalalarni yechimini topishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu muammolarni quyida ularning muhimligiga qarab keltiriladi.

Allaqachon ta'kidlangandek O'zbekistonda mavjud muhofaza qilinadigan hududlar tizimi, uning umumiy maydoni, e'tibori, konsepsial yondashishlari, moliyalashtirishi, qonunchilik negizi va menejment yoki tashkiliy boshqarish nuqtai nazaridan cheklanishlarga ega. Ma'lumki, oxirgi 30 yilda O'zbekistonning biologik xilma - xilligi jiddiy kamaydi, bu ekosistemalar hayotchanligini va mamlakat rivojlanishi istiqbollarini xavf ostida qoldiradi.

Alohida ta'kidlangandek O'zbekistonda mavjud muhofaza qilinadigan hududlar tizimi, uning umumiy maydoni, e'tibori konseptual yondashishlari, moliyalashtirish, qonunchilik negizi va menejmet yoki tashkiliy boshqarish nuqtai nazaridan cheklanishlarga ega. Ma'lumki, oxirgi 30 yilda O'zbekistonning biologik xilma-xilligi jiddiy kamaydi, bu ekosistemalar hayotchanligini va mamlakat rivojlanishi istiqbollarini xavf ostida qoldirdi.

Aloxida muhofaza qilinadigan hududlar tizimi nafaqat yashab qolishi kerak, balki rivojlanishi ham kerak, qaysiki tabiat muhofazasi uchun yangi ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy realliklarga javob beradigan, yangi konseptual va metodologik yondashishlarni ishlab chiqish nihoyatda zarurdir. Tizim o'zini saqlash uchun qilingan harakatlarni qoplashi, mamlakat rivojlanishini barqarorligi uchun aniq ko'rinadigan foyda bilan ta'minlashi zarur. Respublika fuqorolariga iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishi, ayniqsa qishloqda yashovchilaga, tabiiy landshaftlar va bioxilma-xillikni asrashni taminlashi zarur bo'ladi, bularsiz kelajak avlodlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarini qondirib bo'lmaydi.

SHunday qilib, muhofaza qilinadigan hududlarni qayta ko'rib chiqish, qayta tuzish va kengaytirish, besh yil mobaynida (1998-2002y) olib borilgan.

1.3 Strategiyani maqsadi va vazifalari

Maqsadi: Asrash va barqaror foydalanish yo'li bilan, O'zbekiston bioxilma-xilligini himoyalash va qo'llab quvvatlash, hozirgi va kelajak avlodlar, hamma respublikada yashovchilar manfati yo'lida uning barqaror rivojlanishiga eng muhim komponent sifatida qarash.

Vazifalari: Muhofaza qilinadigan tizimlar yaratish birinchi vazifadir.

Jamoatchilikning bilim darajasi va ta'lim masalalari ikkinchi muhim vazifadir.

Bioxilma-xillikdan barqaror foydalanish uchinchi vazifa.

Bioxilma-xillik bo'yicha mintaqaviy va mahalliy harakat rejalariga ega bo'lishlik to'rtinchi muhim vazifadir.

Strategik ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni aniqlab olish kelajakda biologik sektorni barqaror rivojlanishi va o'z ehtiyojlarini ta'minlashi uchun O'zbekiston yechimini topishi zarur bo'ladi.

- ❖ Alohida muhofaza qilinadigan hududlarning samarali va barqaror tizimini yaratish, qaysiki atrof – muhit muhofazasi sifati va bioxilma-xillikni to'liq asrashga erishishni ta'minlashga qaratilishi;
- ❖ Bioxilma-xillik masalalari bo'yicha ta'lim va jamiyat xabardorligi darajasini oshirish, barcha harakatlarni qo'llab-quvvatlash va ularni hayotga tadbqiq etish choralarini ko'rish;
- ❖ Bioxilma-xillikdan barqaror foydalanish yo'llarini ishlab chiqish va baholash, foydani adolatli taqsimlashni ta'minlash.

2. Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimining tahlili.

Hozirda, oxirgi 10 yil ichida ushbu maydonlarning soni o'zgarmagan. O'zbekistonning o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga qaratilgan zakazniklar tashkil etilgan bo'lib, ularning umumiy maydoni 1563 ming gektarni tashkil etadi1.

Shuni ta'kidlash joizki, respublikamizdagi barcha muhofaza etiladigan tabiiy hududlar qonun bilan muhofaza qilinmog'i va huquqiy tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonundan, shuningdek yer, suv, o'rmon to'g'risidagi qonunlar, yer osti boyliklaridan foydalanish to'g'risidagi, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlardan iborat.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tog'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining vazifalari tipik, noyob, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdan, inson faoliyatining

tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishi oldini olishdan, tabiiy jarayonlarni o'rganishdan, atrof tabiiy muhit monitoringini olib borishdan, ekologik ma'rifat va tarbiyani takomillashtirishdan iborat.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ta'rifi va ularni huquqiy maqomi "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida quyidagicha ko'rsatilgan.

Yerning va (yoki) suv kengliklarining (akvatoriyalarning) ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi.

Tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza qilish va foydalanish rejimi o'rnatiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi.

Tabiat rang-barangligini saqlab qolish, ekologik muvozanatni va biosfera monitoringini saqlab turishga, shuningdek shikast yetgan tabiiy majmualarni tiklashga mo'ljallangan yagona tizimni tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni xo'jalik maqsadida foydalanishdan to'liq yoki qisman, bir umrga yoki vaqtincha tortib olinishi mumkin.

Tabiiy zaxiralardan foydalanish va ularni Muhofaza qilishga doir rejalar va dasturlar, yer tuzilishi va joylarni tekislash kesmalari hamda boshqa rejalarini ishlab chiqishda Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisobga olinadi (1-rasm).



1-rasm. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar(landshaft)

2.1 Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining tushunchasi va asosiy xususiyatlari

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi: davlat qo'riqxonalari; majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari; tabiat bog'lari; davlat tabiat yodgorliklari; ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar; muhofaza etiladigan landshaftlar; ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat mulkidir va uning muhofazasidadir. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar xususiy buyurtma qo'riqxonalar hamda tabiiy pitomniklar tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarning qarorlari bilan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning boshqa toifalari ham nazarda tutilishi mumkin. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradilar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini O'zbekiston Respublikasi Tabiatni Muhofaza qilish davlat qimitasi amalga oshiradi.

2.2 Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy turlari.

1)“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida”gi qonunning 18 moddasiga asosan, tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattiq rejimiga ega bo'lgan, tipik ekologik tizimlar, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda o'rganish uchun mo'ljallangan, tabiiy jarayonlar va hodisalar o'zgarishi ustidan monitoring o'tkazish maqsadini qo'ygan tabiatni muhofaza etuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari umumdavlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat qo'riqxonalari hisoblanadi.

Davlat qo'riqxonalari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tabiatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot muassasasi shaklida tashkil etiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat qo'riqxonalarining hududida har qanday faoliyat ta'qiqlanadi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish bundan mustasno. Davlat qo'riqxonalarida yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Davlat qo'riqxonalari hududida hamda ularning qo'riqlanma zonalarida tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish taqiqlanadi.

Davlat qo'riqxonalarining yoki ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo'lsa, shu davlat organlarining xodimi hisoblanmaydigan fuqarolarning davlat qo'riqxonalari hududida bo'lishiga ularda ana shu organlar yoki davlat qo'riqxonasi ma'muriyati bergan ruxsatnoma bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Davlat qo'riqxonalarida ilmiy tadqiqotlar bunday qo'riqxonalar shtatidagi ilmiy xodimlar tomonidan o'tkaziladi. Shartnoma asosida boshqa ilmiy tashkilotlar va mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

2) Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari hisoblanadi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari bunday qo'riqxonalar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari hududida har qanday faoliyat taqiqlanadi, ilmiy-tadqiqot, rekreatsiya faoliyati, atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish, shuningdek pichan o'rish va chorva mollar o'tlatish, yovvoyi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari xodimlarining va mazkur qo'riqxonalarning qo'riqlanma zonalarida yashovchi fuqarolarning o'z ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning dorivor va texnik xom ashyosini tayyorlash (yig'ish) bundan mustasno.

3) Alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat bog'lari hisoblanadi.

Tabiat bog'lari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan tegishincha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladigan milliy tabiat bog'lari va mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog'lariga bo'linadi.

Tabiat bog'lari bunday bog'lar to'g'risidagi, ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo'lsa, shu davlat organlari tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Tabiat bog'larining hududi tabiat bog'lariga foydalanishga berib qo'yiladigan yer uchastkalarida, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning tabiat bog'lari chegaralari doirasidagi yer uchastkalarida joylashadi.

Tabiat bog'larining xo'jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalarida aholining istiqomat qilishiga, yuridik va jismoniy shaxslarning tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazmaydigan faoliyatiga yo'l qo'yiladi.

Har bir zonaning rejimi tabiat bog'lari to'g'risidagi nizomlarda belgilanadi.

Tabiat bog`larining hududida quyidagilar taqiqlanadi:

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo`sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

gidrologik va gidrogeologik rejimni o`zgartiradigan harakatlar;

tuproq eroziyasini, o`simlik va hayvonot dunyosining tanazzulini keltirib chiqaruvchi harakatlar;

tabiat bog`larining faoliyati bilan bog`liq bo`lmagan yo`l va muhandislik-kommunikatsiya ishlarini amalga oshirish;

chiqindilarni saqlash va ko`mish, oqava suvlarni oqizish;

tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish.

Tabiat bog`larida tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazishi mumkin bo`lgan faoliyatning boshqa turlari ham cheklanishi yoki taqiqlanishi mumkin. Tabiat bog`larining faoliyat ko`rsatishi uchun yo`llar, boshqa kommunikatsiyalar va inshootlar qurilishi zarur bo`lgan hollarda buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, barcha tabiatni muhofaza qilish yo`nalishidagi tadbirlarni amalga oshirish albatta nazarda tutiladi.

4) Noyob, o`rnini to`ldirib bo`lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat tabiat yodgorliklari hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Tabiatni Muhofaza qilish davlat qimitasi respublika shududida 400 dan ortiq tabiat yodgorligini shisobga olgan. Bulardan atigi 80 ga yaqini jonsiz tabiat yodgorliklaridir. Jonsiz tabiat yodgorliklari orasida xilma-xil karst relyefi shakllari, shu jumladan, arxeologik ahamiyatga ega bilgan va ungurlar, shuningdek nodir buloqlar, sharsharalar, ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bilgan qoyalar va geologik ochilmalarni muhofaza qilish muhim vazifalardan shisoblanadi. Ayniqsa yer osti landshaftlari, ularning betakror, seshrli va maftunkor manzaralari jiddiy Muhofazaga muhtojdir.

Davlat tabiat yodgorliklari quyidagi turlarga bo`linadi:

tabiiy suv obyektlarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan gidrologik (botqoq, ko`l, daryo va boshqa) yodgorliklar;

ayrim o`simliklarni saqlab qolish uchun mo`ljallangan botanik yodgorliklar;

tabiat yaratgan relyef shakllarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan geomorfologik yodgorliklar;

qazilma obyektlarni saqlab qolish uchun mo`ljallangan paleontologik yodgorliklar;

geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo`ljallangan geologik va mineralogik yodgorliklar.

Davlat tabiat yodgorliklari hududida ularning asralishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Davlat tabiat yodgorliklari qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida joylashgan bo`lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga bunday yodgorliklarning rejimini ta'minlash majburiyatlari yuklatiladi.

Diniy maqsadlarda foydalaniladigan davlat tabiat yodgorliklari diniy tashkilotlarga yoki jismoniy shaxslarga bunday yodgorliklarni obodonlashtirish va asrash ishlarini amalga oshirish sharti bilan foydalanishga yoki ijaraga berilishi mumkin.

5) Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan hududlar buyurtma qo`riqxonalar, tabiiy pitomniklar va baliq xo`jaligi zonolari tariqasida tashkil etiladi.

Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *buyurtma qo`riqxonalar* hisoblanadi.

Buyurtma qo`riqxonalar quyidagi turlarga bo`linadi:

o`simliklar va hayvonlarning qimmatli, noyob va yo`qolib ketish xavfi ostida turgan turlarini, tirik organizmlarning ko`chib o`tish yo`llarini saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan biologik (botanik, zoologik) buyurtma qo`riqxonalar;

ayrim qazilma obyektlar va ularning majmualarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan paleontologik buyurtma qo`riqxonalar;

qimmatli suv obyektlarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan gidrologik (botqoq, ko`l, daryo) buyurtma qo`riqxonalar;

nodir geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo`ljallangan geologik va mineralogik buyurtma qo`riqxonalar.

Buyurtma qo`riqxonalar umumdavlat yoki mahalliy ahamiyatga molik bo`lishi mumkin.

Umumdavlat ahamiyatiga molik buyurtma qo`riqxonalar maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Mahalliy ahamiyatga molik buyurtma qo`riqxonalar maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Buyurtma qo`riqxonalar faoliyat muddatlari ko`rsatilmagan holda (muddatsiz) yoki kamida o`n yil muddatga tashkil etiladi.

Buyurtma qo`riqxonalar davlatga qarashli yoki xususiy bo`lishi, yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda bo`lishi mumkin.

Xususiy buyurtma qo`riqxonalarini va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi davlat buyurtma qo`riqxonalarini tashkil etish uchun yer uchastkalari va ayrim tabiiy obyektlar belgilangan tartibda beriladi.

Buyurtma qo`riqxonalarining hududida, majmua (landshaft) buyurtma qo`riqxonalarini istisno etganda, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazishi mumkin bo`lgan har qanday faoliyat doimiy ravishda yoki vaqtincha cheklanadi yoki tugatiladi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi davlat buyurtma qo`riqxonalarini joylashgan hududlar yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarning, shuningdek yer

uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining xo`jalik maqsadidagi foydalanishidan olib qo`yilmaydi. Mazkur buyurtma qo`riqxonalar qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida va (yoki) akvatoriya uchastkalarida tashkil etilgan bo`lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar buyurtma qo`riqxonalarning belgilangan rejimiga rioya etishlari shart.

Har bir buyurtma qo`riqxona rejimining xususiyatlari, mazkur buyurtma qo`riqxona qaysi davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufida bo`lsa, shu davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.

O`simliklar va hayvonlarning ayrim turlariga zarur sharoit yaratish yo`li bilan ularni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *tabiiy pitomniklar* hisoblanadi.

Tabiiy pitomniklar yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Tabiiy pitomniklar davlatga qarashli yoki xususiy, yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda bo`lishi mumkin.

Xususiy tabiiy pitomniklarni va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi davlat tabiiy pitomniklarini tashkil qilish uchun yer uchastkalari va ayrim tabiiy obyektlar belgilangan tartibda beriladi.

Tabiiy pitomnik qaysi o`simliklar va hayvonlar uchun mo`ljallangan bo`lsa, shu pitomnikning hududida shu o`simliklar va hayvonlarning saqlab qolinishi, takror ko`paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Suv obyektlarini yoki ularning qismlarini o`z ichiga oladigan, noyob va yo`qolib ketish xavfi ostida turgan baliqlar va boshqa suv organizmlari turlarini saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun, shuningdek baliq xo`jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ***baliq xo`jaligi zonalari*** hisoblanadi.

Baliq xo`jaligi zonalari tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo`jaligi organlarining taqdimnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Baliq xo`jaligi zonalarida baliqlar va boshqa suv organizmlarining saqlab qolinishi, takror ko`paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

6) Kurort tabiiy hududlar, rekreatsiya zonalari, suvni muhofaza qilish zonalari, sohilbo`yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari, yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonalari muhofaza etiladigan landshaftlar jumlasiga kiradi.

Davolash va sog`lomlashtirish xossalariga, mineral manbalarga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga, qulay iqlim va boshqa sharoitlarga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *kurort tabiiy hududlar* hisoblanadi.

Kurort tabiiy hududlar umumdavlat va mahalliy ahamiyatga molik bo`lishi mumkin.

Umumdavlat ahamiyatiga molik kurort tabiiy hududlar O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining birgalikdagi taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Mahalliy ahamiyatga molik kurort tabiiy hududlar O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining birgalikdagi taqdimnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Kurort tabiiy hududlar uchta zonaga bo'linadi.

Birinchi zonaga davolash xossalariga ega manbalar, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hududlar kiradi. Bunday zonada har qanday faoliyat taqiqlanadi, davolash xossalariga ega manbalar va balchiq bilan davolash shifoxonalarini obodonlashtirish uchun zarur inshootlar qurish bundan mustasno.

Ikkinchi zonaga sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylarining hududlari kiradi. Bu zonada davolash va dam olishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan faoliyatni istisno etganda har qanday faoliyat, shuningdek bu hududda vaqtincha istiqomat qiladigan tibbiyot xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari boshqa aholining yashashi taqiqlanadi.

Uchinchi zonaga sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylariga tutash hududlar kiradi. Bu zonada davolash manbalariga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga zarar yetkazmaydigan va dam olish hamda davolanish sharoitlarini yomonlashtirmaydigan cheklangan xo'jalik faoliyati yuritishga ruxsat etiladi.

Kurort tabiiy hududlar doirasida quyidagilar taqiqlanadi:

foydali qazilmalarni qazib olish, mineral suvlar va shifobaxsh balchiq qazib olish bundan mustasno;

kimyo, selluloza-qog'oz va metallurgiya sanoati korxonalarining faoliyati;

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo'sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

zaharli kimyoviy moddalarni qo'llanish;

harom o'lgan chorva mollar ko'miladigan joylarni tashkil etish;

zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar omborlarini qurish;

chiqindilarni saqlash va ko'mish;

joyning gidrologik rejimini o'zgartirish.

Turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun qulay jug'rofiy va iqlim sharoitlariga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *rekreatsiya zonalari* hisoblanadi.

Rekreatsiya zonalari O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining birgalikdagi taqdimnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Rekreatsiya zonalari tabiiy obyektlar va majmualarning holatiga qarab turli rejimga ega uchastkalarga bo'linishi mumkin.

Rekreatsiya zonalarida quyidagilar taqiqlanadi:

kimyo, selluloza-qog'oz va metallurgiya sanoati korxonalarining faoliyati;

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo`sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

zaharli kimyoviy moddalarni qo`llanishi;

haram o`lgan chorva mollar ko`miladigan joylarni tashkil etish;

chiqindilarni saqlash va ko`mish;

joyning gidrologik rejimini o`zgartirish.

Daryolarning, ko`llarning, suv omborlarining, kanallarning, kollektorlar hamda boshqa suv obyektlarining o`zanlariga tutash muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *suvni muhofaza qilish zonolari* hisoblanadi. Bu zonalar ifloslanish, bulg`anish, sayozlanishning hamda suv obyektlari tuproq eroziyasi mahsullari bo`lmish loyqa bilan to`lib qolishining oldini olish maqsadida, shuningdek eng maqbul suv rejimini saqlab turish uchun tashkil etiladi.(2-rasm)

Qattiq rejimga asoslangan suvni muhofaza qilish zonolari doirasidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohilbo`yi mintaqalari hisoblanadi.

Ichimlik, maishiy va davolash-sog`lomlashtirish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan suv obyektlariga tutash, qattiq rejim asosidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonolari hisoblanadi.

Daryolarning vohalarida, yoyilma konuslarda, tog` yonbag`irlarining etaklarida tashkil qilinadigan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonolari hisoblanadi.

Suvni muhofaza qilish zonolari, sohilbo`yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonolari hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonolari tegishincha tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo`jaligi, sanitariya nazorati organlarining, geologiya tashkilotlarining taqdimnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Suvni muhofaza qilish zonolari doirasida cheklangan xo`jalik faoliyati yuritishga yo`l qo`yiladi. Bunday zonalarda quyidagilar taqiqlanadi:

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo`sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

zaharli kimyoviy moddalarni qo`llanish;

zaharli kimyoviy moddalar va mineral o`g`itlar omborlarini qurish;

haram o`lgan chorva mollar ko`miladigan joylarni tashkil etish;

chiqindilarni saqlash va ko`mish;

kanalizatsiya-tozalash inshootlari va oqava suvlar to`planadigan inshootlar qurish;

chorvachilik va parrandachilik majmualarini joylashtirish, shuningdek sug`orish uchun "sharbat" (suyuq go`ng) ishlatish;

avtomobil transportini qo`yib turish, ularga yonilg`i quyish, ularni yuvish va ta'mirlash joylarini tashkil etish;

neft mahsulotlari omborlarini tashkil etish;

zig`ir, kanop va teri yuvish.

Sohilbo`yi mintaqalarida ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan cheklashlar va taqiqlardan tashqari quyidagilar taqiqlanadi:

mineral va organik o`g`itlarni qo`llanish;

chorva mollarni o`tlatish;

har qanday turdagi qurilish, suv xo`jaligi obyektlarini qurish bundan mustasno;

belgilanmagan joylarda qayiqlar bog`lab qo`yiladigan joylar tashkil etish.

Suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari turli rejimli muhofaza mintaqalariga bo`linadi.

Daryo o`zanlarini o`zgartirish, foydali qazilmalar qazib olish va suv obyektlari holatiga ta'sir qiladigan boshqa ishlarni bajarishga faqat tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo`jaligi organlarining, shuningdek geologiya tashkilotlarining ruxsatnomasi bilan yo`l qo`yiladi.



2-rasm Suvni behuda isrof qilmang.

Aholi punktlari hududida xo`jaliklararo yer tuzish va rejalashtirish o`tkazilayotganda suvni muhofaza qilish zonalarining, sohilbo`yi mintaqalarining va suv obyektlari sanitariya muhofazasi zonalarining chegaralarini o`zgartirish tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo`jaligi organlari hamda sanitariya nazorati organlari bilan kelishib olinishi lozim.

Suvni muhofaza qilish zonalari va sohilbo`yi mintaqalari rejimi yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonalariga ham tatbiq etiladi.

Suvni muhofaza qilish zonalari, sohilbo`yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonalarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi hamda shartlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

7) O`rmon fondining eroziyaga qarshi barpo etilgan o`rmonlar, shahar o`rmonlari, shaharlarning, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining yashil mintaqalari atrofidagi o`rmonlar, alohida qimmatli o`rmonlar, yong`oqzorlar, mevali daraxtzorlar, ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o`rmonlar egallagan yerlari, shuningdek ovchilik xo`jaliklarining o`simlik va hayvonot dunyosidan

oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan yer uchastkalari ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar jumlasiga kiradi.

Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlarda tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish hamda o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa faoliyat taqiqlanadi.

Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlarda o'simlik va hayvonot dunyosidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Shuningdek, hududlarni barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish maqsadida *davlat biosfera rezervatlari* - biologik rang-baranglikni saqlash, tabiiy obyektlar va majmualardan oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilishi mumkin. Davlat biosfera rezervatlari xalqaro biosfera rezervatlari tarmog'iga qo'shilishi va atrof tabiiy muhitning global monitoringida ishtirok etishi mumkin.

Davlat biosfera rezervatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Davlat biosfera rezervatlarining hududlari davlat biosfera rezervatlariga foydalanishga beriladigan yer uchastkalarida, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning davlat biosfera rezervatlari chegaralari doirasidagi yer uchastkalarida joylashadi.

Davlat biosfera rezervatlari hududida quyidagilar ajratib qo'yiladi:

tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlab qolish uchun mo'ljallangan, davlat qo'riqxonolari uchun nazarda tutilgan rejimli qo'riqxonaga aylantirilgan zona;

tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan, qo'riqxonaga aylantirilgan zonaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat taqiqlanadigan oraliq zona;

davlat biosfera rezervatlarining tabiiy obyektlari va majmualariga zarar yetkazmaydigan xo'jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagi faoliyatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan zona.

Davlat biosfera rezervatlarining rejimi bunday rezervatlar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, ikki va undan ortiq davlat hududida joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar* hisoblanadi.

Davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida tashkil etilishi mumkin. Davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq belgilanadi.

Davlat qo'riqxonolari, buyurtma qo'riqxonalar va davlat tabiat yodgorliklari bilan chegaradosh hududlar qo'riqlanma zonalar hisoblanadi. Qo'riqlanma zonalarda ana shu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta'sirning oldini

olish uchun xo`jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagi faoliyat cheklanadi yoki taqiqlanadi.

Qo`riqlanma zonalarining o`lchamlari va rejimi, shuningdek yer uchastkalarini saqlash vazifasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtda belgilanadi.

Davlat qo`riqxonasi qo`riqlanma zonasining bir qismi ekologik turizmni tashkil etish, mazkur hudud uchun xos bo`lgan noyob hamda yo`qolib ketish xavfi ostida turgan o`simliklar va hayvonlarning turlarini ko`paytirish maqsadida tabiiy pitomniklar barpo etish uchun hamda qo`riqxonaning boshqa ehtiyojlari uchun shu qo`riqxonaning o`ziga topshirilishi mumkin.

3. Bioxilma-xillikni asrashning milliy harakat rejasi

Shu o'rinda ta`kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi hukumati va Qozog'iston Respublikasi hukumati o'rtasidagi Kelishuvni amalga oshirish maqsadida Orol dengizining qurigan tubida o'rmon-meliorativ tadbirlarini amalga oshirish orqali hududdagi ekologik holatni sog'lomlashtirish, sayg'oqlarni muhofaza qilish, ularning bosh sonini ko'paytirish, Ustyurt tekisligida sayg'oqlar populyatsiyasining hozirgi holatini baholash va ularni saqlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, Ustyurt tekisligida «Saygachiy» majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasini tashkil etish rejalashtirilgan. Shuningdek, «Ugam-Chotqol» davlat milliy tabiat bog'i tarkibidagi yadro sifatida Pskom qo'riqxonasini, «Hisor» davlat qo'riqxonasi, «Jayron» ekomarkazini rivojlantirish, tarixiy va tabiiy madaniyat obidalarini termitlar va boshqa ksilofaglar zararidan saqlab qolishning ekologik xavfsiz uslublarini ishlab chiqish va joriy etish, geologik tabiat obidalarining xatlovini o'tkazish, ularni saqlab qolish va ulardan foydalanish bo'yicha katalog va tavsiyalar ishlab chiqish, o'simlik dunyosi davlat kadastrini yuritishning asosi sifatida O'zbekistonning o'simlik dunyosi genofondini baholash, baliqlarning noyob va yo'qolib borayotgan turlarini ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish, ovlanadigan baliqlar asosiy to'dalarining holatini baholash va ovlashga ruxsat etilgan yillik me`yorlarini aniqlash bo'yicha tadbirlar belgilangan. Chora-tadbirlar doirasida yangi tahrirdagi Bioxilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha Milliy strategiya va harakatlar rejasini ishlab chiqish, ekologik tarbiya, ta`lim tizimini rivojlantirish, ekologik bilimlarni targ'ib qilish va barqaror rivojlanish va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha aholi xabardorligini oshirish maqsadida barqaror rivojlanish maqsadlarida ta`lim bo'yicha darsliklarni, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni, o'quv filmlari, o'quv va multimedia materiallarini, O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ning navbatdagi ikkita tomini, «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar» kitob-fotoalbomini tayyorlash va nashr etish, shuningdek, jamoatchilikning ekologik bilimini oshirish va uni atrof-muhit muhofazasi jarayoniga keng jalb qilish kabi tashkiliy tadbirlarni o'tkazishga muhim ahamiyat berilgan.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ming yillik deklaratsiyasini tan olgan va imzolagan tomon sifatida bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar va

fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi milliy vazifalarni ishlab chiqdi hamda o'z majburiyatlarini bajarib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida O'zbekistonda BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlanib, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya va harakat rejasini takomillashtirish, «Qoraqalpog'istonda Amudaryo daryosi deltasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini mustahkamlash va to'qayzor o'rmonlarni saqlash» loyihasini hayotga tatbiq etishda belgilangan reja asosida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumot o'rnida aytish o'rinliki, Ekoharakat deputatlari guruhi a'zolari tomonidan O'zbekiston Respublikasining «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunlari normalarini ekologiya sohasidagi xalqaro huquq normalari talablariga uyg'unlashtirish orqali biologik xilma-xillikning tarkibiy qismi hisoblangan fauna va flora turlarining qisqarishini yoki yo'qolib borishining oldini olishni, ulardan samarali va ilmiy asoslangan holda foydalanishni, ularning genofondini saqlab qolishni nazarda tutuvchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha ham ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi nufuzli maqomini hamda mintaqada global ta'siriga ega bo'lgan transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishdagi o'rnini hisobga olgan holda biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha o'z oldiga qo'ygan vazifalarini bajarishi o'ta dolzarb hisoblanadi.

Davlatimizning uzoqni ko'zlagan, kelajak avlodlar hayoti uchun qulay sharoit yaratishni ta'minlashga yo'naltirilgan ekologik siyosati yangi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni, qo'riqxonalarni, milliy bog'larni, biosfera rezervatlarini yaratishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi flora va faunani muhofaza qilishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi qonunlarida belgilab qo'yilgan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiiy muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular inson yashashining zarur sharti bo'lgan ekologik barqarorlikni saqlash va tabiiy ekotizimlarni tiklashning muhim mezoni sanaladi. Bugungi kunda respublikamizda 9 ta davlat qo'riqxonasi, 1 davlat biosfera rezervati, 2 ta milliy bog', 10 ta davlat buyurtma qo'riqxonasi va hayvonlarning noyob turlarini ko'paytirish bo'yicha 3 ta markaz hamda 6 ta tabiat yodgorliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar uchastkalarida yovvoyi hayvonlarning hamda o'simliklarning hozirgi holati va ularning hisobini yuritish bo'yicha, shuningdek, flora va faunaning yo'q bo'lib ketish xavfi ostida bo'lgan noyob turlarini ko'paytirish va qayta yetishtirish, saqlash bo'yicha ilmiy-tekshirish, tashkiliy-texnik tadbirlar olib borilmoqda.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 yanvardagi "O'zbekistondagi BMTning ming yillik taraqqiyot maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari doirasida aholining turmush darajasini bosqichma-bosqich oshirishga qaratilgan "2011-2015 yillarda O'zbekistonda BMTning ming yilligini rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlari Kompleksi" tasdiqlandi.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun ekologik barqarorlikni ta'minlash vazifalari "Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya va Harakat rejasi"ni takomillashtirish, Orolbo'yida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqish va joriy etish, "Qoraqalpog'istonda Amudaryo daryosi del'tasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini mustahkamlash va to'qayzor o'rmonlarni saqlash" loyihasini joriy qilish, suv havzalarining biologik resurslardan samarali foydalanish va ularda baliq yetishtirishni rivojlantirish bo'yicha biologik asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun suv havzalarining ekologik holatini baholash, energiya ekologik toza turlarni tatbiq etish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy maqomi hamda mintaqada global ta'siriga ega bo'lgan transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishdagi o'rnidan kelib chiqqan holda, Xalqaro konventsiyalar hamda Mingyillik maqsadlarida bayon etilgan yo'nalishlarning bajarilishi o'ta dolzarb vazifaga aylanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil bozor islohotlari, iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlar, aniq yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat tufayli BMTning Mingyillik maqsadlarining bajarilishi va mamlakatimizning barqaror rivojlanish, biologik xilmaxillikning saqlanishiga xizmat qilmoqmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, har soatda sayyoramizdagi hayvonot va o'simlik turi bittaga kamayib borayotgan ekan. Shu boisdan jahon hamjamiyati bu kabi muammolarning oldini olish maqsadida har yili 22 mayni Xalqaro bioxilma-xillik kuni sifatida keng nishonlaydi. Darhaqiqat, bugun ona sayyoramizda tabiatni asl holida saqlash global muammoga aylangan. Bu masalani hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlar milliy qonunchiligimizda ham o'z aksini topgan.

Mustaqillik yillarida tabiatning betakrorligini saqlab qolish, o'rmonlar maydonini kengaytirish hamda noyob o'simlik va hayvonot turlarini saqlash, tabiatga yetkaziladigan salbiy ta'sirni kamaytirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Binobarin, mamlakatimizda 1995 yil bioxilma-xillikni saqlash to'g'risidagi Xalqaro konvensiya ratifikatsiya qilingan. Shuningdek, biologik resurslarni muhofaza qilishning o'ziga xos huquqiy asoslari ham yaratildi. Bundan tashqari, bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirib kelinmoqda. Shu kabi sa'y-harakatlar natijasi o'laroq, kamyob mavjudotlar va o'simliklar turlarini saqlab qolishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga qarashli «Jayron» ekomarkazida jayron, qulon, Prjevalskiy otlarini tabiiy ko'paytirishga erishildi. Shuningdek, mazkur markazda 28 o'simlik oilasiga mansub ikki yuzdan ziyod tur ko'paytirib kelinmoqda.

Markazda hayvonot va nabotot dunyosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar izchil olib borilmoqda. Masalan, hayvon va o'simliklarning biologik, fiziologik va ekologik xususiyatlari o'rganilib, qo'llanma va dasturlar yaratildi. Quvonarli tomoni shundaki, tabiiy sharoitda ko'paytirilayotgan *Gazella jayronini* o'rganishga oid ilmiy tadqiqot dunyo amaliyotida yagona hisoblanadi. Shu sababli ham, bu borada Rossiyaning tabiatni o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti, Fransiyaning tabiatni o'rganish milliy markazi, Xalqaro yovvoyi tabiatni asrash fondi va xorijdagi boshqa yetakchi ilm-fan markazlari olimlarimiz bilan hamkorlikda ishlab kelishmoqda.

Mamlakatimizning boshqa bir qator hududlarida ham shu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy loyihalar hayotga tatbiq etib kelinayapti. Hisor davlat qo'riqxonasida yo'qolib borayotgan o'simlik va sut emizuvchilarni o'rganish va saqlab qolishga yo'naltirilgan dastur amalga oshirilmoqda. Peshku tumanida «Qizil kitob»ga kiritilgan yo'rg'a tuvaloqni ko'paytirishga ixtisoslashgan ikkita parvarishxona faoliyati yo'lga qo'yildi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida kamyob baliq turlarini muhofaza qilish maqsadida muntazam monitoring olib borilmoqda. U yerdagi baliqlar turini saqlab qolish bilan bog'liq muammolar bartaraf etilayotir.

Ma'lumki, daraxt ekish va bog' yaratish xalqimizning o'lmas qadriyati sifatida shakllangan. E'tibor bering, mamlakatimiz bo'yicha yoshi yuzdan oshgan qancha daraxt bor?! Bu ko'pchilik uchun qiziqarli. Hozirgacha shunday ulug'vor yoshdagi to'qqiz yuz tup daraxt mahalliy hokimliklar tomonidan ro'yxatga olindi hamda ularga «tabiat yodgorligi» maqomi berildi. (3-rasm)



3-rasm Ona tabiat va tabiiy yodgorliklarni asraylik (Farbiy Tyan-Shan tog'lari)

Global ekologik jamg'arma granti asosida amalga oshirilgan «Farbiy Tyan-Shan tog'lari bioxilma-xilligini saqlash bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlararo loyihasi» bu borada amalga oshirilgan ulkan ishlardan biri bo'ldi, desak, sira mubolag'a

bo'lmaydi. Loyiha doirasida to'rt yil davomida ish olib borildi hamda atrof-muhitga ko'rsatila-tgan salbiy ta'sir kamaytirildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda bir qator xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshirilgan mazkur loyiha nafaqat biologik xilma-xillikni asrash, balki o'simliklarning genetik xususiyatlarini saqlashga ixtisoslashgani bilan ham juda ahamiyatli bo'ldi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan turli loyihalar natijasida inson ko'magiga muhtoj bo'lib turgan hayvon va o'simlik turlari aniqlanib, ro'yxatga olindi. Endi ana shu ro'yxat asosida O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ning yangi nashri yaratiladi. Shuningdek, mamlakatimiz hayvonot va nabotot olamining yangi kadastrini yaratish ishlari qizg'in davom ettirilmoqda. Jizzax, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida bu boradagi ishlar nihoyasiga yetkazildi.

Xalqimiz azal-azaldan tabiatga alohida mehr ko'rsatib keladi. Keyingi yillarda bu boradagi ishlarga davlat miqyosida e'tibor qaratilayotgani esa masalani tez va soz hal etishda asosiy omil bo'lib kelayotgani hech kimga sir emas. Tabiat - inson ha-tining azaliy ma'vosi. Zero, tabiatni asrash, uning yanada chiroy ochayotgan bag'rida yayrab yashash zavqiga ne yetsin?..

3.1. Harakat rejasi, maqsadlari, hal qilish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi hamda 2008-2012 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturida belgilangan vazifalar ijrosiga oid parlament eshituvi o'tkazildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamda Ekoharakat deputatlar guruhi tomonidan tashkil etilgan tadbirda senatorlar, deputatlar, tegishli vazirlik va jamoat tuzilmalari vakillari, olimlar va jurnalistlar ishtirok etdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi raisi B.Alixonov mamlakatimizda biologik resurslarni muhofazalash va ulardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga katta e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. Shu maqsadda qabul qilingan Bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi, shuningdek, 2008-2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi izchil amalga oshirilmoqda.

Yig'ilishda O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi N.Umarov, qishloq va suv xo'jaligi vaziri Z.Ro'ziyev, Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti T.Oripovning mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborotlari eshitildi.

Tadbirda mamlakatimizda muhofaza etiladigan hududlar tizimini kengaytirish, noyob flora va fauna turlarini asrash hamda ko'paytirishga erishilayotgani qayd etildi.

Buxoro viloyatidagi "Jayron" ekomarkazining hududi kengaytirilib, bu yerda parvarishlanayotgan jayron, qulon kabi noyob hayvonlar soni ko'paymoqda. "Hisor" davlat qo'riqxonasida ham hududning noyob ekotizimlarini asl holicha asrash, ko'paytirish, biologik zaxiralarni muhofazalashga oid qator ilmiy-amaliy loyihalar amalga oshirilayotir.

Yerning unumdorligini oshirish, irrigatsiya tizimlarini takomillashtirish, o'rmonlarni kengaytirish, Orolbo'yida ijtimoiy-ekologik holatni yaxshilash, baliqchilikni rivojlantirish, to'qayzorlarni muhofazalash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish maqsadida O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, "Ekosan" xalqaro jamoatchilik jamg'armasi, O'zbekiston Ekologik harakati tomonidan ko'plab media-turlar, muloqot va davra suhbatlari tashkil etilmoqda.

Tadbirda bioxilma-xillikni asrashga oid dastur va loyihalar yuzasidan bajarilayotgan ishlar, yechimini kutayotgan masalalar atroflicha tahlil etildi. Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, sayyoramizda har soatda bittadan hayvon va o'simlik turi yo'qolmoqda. Flora va faunaning ko'pgina noyob turlariga butunlay qirilib ketish xavfi tahdid solmoqda. Jahon hamjamiyati bunday ekologik muammolarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishga erishish maqsadida 22 mayni Xalqaro bioxilma-xillik kuni sifatida keng nishonlaydi.

Tabiatning betakror obidalarini asrab-avaylash, o'rmonlar maydonini kengaytirish, noyob o'simlik va hayvon turlarini muhofazalash, tabiatga yetkazilayotgan salbiy ta'sirlarni kamaytirishga ulkan e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz 1995 yilda bioxilma-xillikni saqlash to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga qo'shilgan.

Mamlakatimizda biologik resurslarni muhofazalashning o'ziga xos huquqiy mexanizmi yaratilgan. Bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Unda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilayotgani tufayli alohida muhofaza etiladigan hududlar kengayib, tabiatimizning nodir mavjudotlari va yashil boyligimizni asrab-avaylash, ko'paytirish imkoniyati oshmoqda. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga qarashli "Jayron" ekomarkazida amalga oshirilayotgan ishlar bunga misol bo'la oladi. Mazkur markazda jayron, qulon, Prjevalskiy oti singari noyob jonzorlar ko'paytirilmoqda. Markaz o'ziga xos florasi jihatidan ham mutaxassislar e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Bu yerda 28 o'simlik oilasiga mansub ikki yuzdan ziyod turni uchratish mumkin. Shu hududda mavjud ornitofaunaning 37 foizini tashkil etuvchi qushlarning aksariyati "Qizil kitob"ga kiritilgan. Markaz ilmiy xodimlari tomonidan hayvonlarning biologik, fiziologik va ekologik xususiyatlari tadqiq etilishi natijasida ko'plab qo'llanma va dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu muhofaza etiladigan tabiiy hududda ko'paytirilayotgan jayronlarning Gazella subgutoza turini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar esa

dunyo amaliyotida yagona hisoblanib, olimlarimiz va mutaxassislarimizning bu boradagi tajribasi xorijlik ekspertlarning e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Shu bois "Jayron" ekomarkazi Rossiyaning tabiatni o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti, Fransiyaning tabiatni o'rganish milliy markazi, Xalqaro yovvoyi tabiatni asrash fondi va xorijdagi boshqa yetakchi ilm-fan markazlari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi axborot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, shu kunlarda "Jayron" ekomarkazida Buxoro qo'yini va burama shoxli echkilarni ko'paytirish yo'lga qo'yilgan. Moskva hayvonot bog'i va Tojikiston milliy bog'iga ellik boshga yaqin jayron yetkazib berilgan. Yurtimizning boshqa hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ham ana shu yo'nalishda ko'plab ilmiy-amaliy loyihalar bajarilmoqda. Jumladan, Hisor davlat qo'riqxonasida yo'qolib borayotgan o'simliklar va sut emizuvchilarning biologiyasini o'rganish, qo'riqxonada fenologik kuzatuvlardan foydalanish dasturini ishlab chiqish, "Sayxun" xo'jaligida yovvoyi jonzotlarni ko'paytirish loyihalari o'z samaralarini berayotir. Buxoro viloyatining Peshku tumanida esa "Qizil kitob"ga kiritilgan yo'rg'a tuvaloqni ko'paytirish maqsadida ikkita parvarishxona ochildi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi o'ziga xos faunasi bilan ajralib turadi. Tabiatni muhofaza qilish idoralari mutaxassislari ushbu hududning bioxilma-xilligini asrash, noyob baliq turlarini muhofazalash maqsadida muntazam monitoring olib bormoqda. Kuzatuvlar natijasidan ma'lum bo'lishicha, ushbu hududda faoliyat yuritayotgan ijarachi xo'jaliklar noyob baliq turlarini belgilangan me'yordan oshiq miqdorda ovlayotgani aniqlandi. Bunday muammolarni bartaraf etish maqsadida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidagi ixtiologik punktlar faoliyatini tartibga solishga oid nizom, tabiiy baliqchilik suv havzalarini yosh noyob sanoatbop baliq turlari bilan to'ldirish tartiblari to'g'risidagi yo'riqnoma va baliqchilik ahamiyatiga ega bo'lgan suv havzalari monitoringi to'g'risidagi nizom loyihalari ishlab chiqildi.

Daraxt ekish, bog' yaratish xalqimizning azaliy qadriyatlaridan. Bu boradagi qadimiy an'analarimizni e'zozlash va yosh avlod ongiga yanada chuqurroq singdirish maqsadida yoshi yuzdan oshgan daraxtlarni davlat muhofazasiga olish dasturi hayotga tatbiq etilmoqda. Hozirgacha qariyb to'qqiz yuz tup ana shunday daraxt joylardagi mahalliy hokimliklar tomonidan ro'yxatga olinib, ularga "tabiat yodgorligi" maqomi berildi. Yurtimizda Global ekologik jamg'arma granti asosida amalga oshirilgan "G'arbiy Tyanshan tog'lari bioxilma-xilligini saqlash bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlararo loyihasi" esa ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bo'ldi. To'rt yil mobaynida ish olib borilgan loyiha doirasida aholi va nodavlat notijorat tashkilotlarga atrof-muhitga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida qo'shimcha daromad keltiruvchi va barqaror faoliyat turini joriy etish uchun kichik grantlar taqdim etildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining tegishli ilmiy muassasalari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, qator xalqaro tashkilotlar hamkorligida hayotga tatbiq etilayotgan ushbu loyiha nafaqat biologik xilma-xillikni asrash, balki yashil boyligimizning genetik resurslarini saqlashga ham xizmat qiladi. Biologik xilma-

xillikni asrash borasida olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ana shunday istiqbolli loyihalar natijasida bugungi kunda muhofazaga muhtoj hayvon va o'simlik turlari to'la aniqlandi. Ushbu yangi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" ning yangi nashrini yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda mutaxassislarimiz bu boradagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida yurtimiz florasi va faunasinin g yangi kadastrini ishlab chiqish bo'yicha ish olib borayotir. Jizzax, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ishlar nihoyasiga yetdi. Biologik resurslarni asrab-avaylash va tabiiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladigan bunday tadbirlar boshqa viloyatlarda davom ettirilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, har soatda sayyoramizdagi hayvonot va o'simlik turi bittaga kamayib borayotgan ekan. Shu boisdan jahon hamjamiyati bu kabi muammolarning oldini olish maqsadida har yili 22 mayni Xalqaro bioxilma-xillik kuni sifatida keng nishonlaydi. Darhaqiqat, bugun ona sayyoramizda tabiatni asl holida saqlash global muammoga aylangan. Bu masalani hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlar milliy qonunchiligimizda ham o'z aksini topgan. Mustaqillik yillarida tabiatning betakrorligini saqlab qolish, o'rmonlar maydonini kengaytirish hamda noyob o'simlik va hayvonot turlarini saqlash, tabiatga yetkaziladigan salbiy ta'sirni kamaytirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Binobarin, mamlakatimizda 1995 yil bioxilma-xillikni saqlash to'g'risidagi Xalqaro konvensiya ratifikatsiya qilingan. Shuningdek, biologik resurslarni muhofaza qilishning o'ziga xos huquqiy asoslari ham yaratildi. Bundan tashqari, bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirib kelinmoqda. Shu kabi sa'y-harakatlar natijasi o'laroq, kamyob mavjudotlar va o'simliklar turlarini saqlab qolishga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga qarashli «Jayron» ekomarkazida jayron, qulon, Prjevalskiy otlarini tabiiy ko'paytirishga erishildi. Shuningdek, mazkur markazda 28 o'simlik oilasiga mansub ikki yuzdan ziyod tur ko'paytirib kelinmoqda. Markazda hayvonot va nabotot dunyosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar izchil olib borilmoqda. Masalan, hayvon va o'simliklarning biologik, fiziologik va ekologik xususiyatlari o'rganilib, qo'llanma va dasturlar yaratildi. Quvonarli tomoni shundaki, tabiiy sharoitda ko'paytirilayotgan Gazella jayronini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot dunyo amaliyotida yagona hisoblanadi. Shu sababli ham, bu borada Rossiyaning tabiatni o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti, Fransiyaning tabiatni o'rganish milliy markazi, Xalqaro yovvoyi tabiatni asrash fondi va xorijdagi boshqa yetakchi ilm-fan markazlari olimlarimiz bilan hamkorlikda ishlab kelishmoqda. Mamlakatimizning boshqa bir qator hududlarida ham shu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy loyihalar hayotga tatbiq etib kelinayapti. Hisor davlat qo'riqxonasida yo'qolib borayotgan o'simlik va sut emizuvchilarni o'rganish va saqlab qolishga yo'naltirilgan dastur amalga oshirilmoqda. Peshku tumanida «Qizil kitob»ga kiritilgan yo'rg'a tuvaloqni ko'paytirishga ixtisoslashgan ikkita parvarishxona faoliyati yo'lga qo'yildi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida kamyob baliq turlarini muhofaza qilish maqsadida muntazam monitoring olib borilmoqda. U yerdagi baliqlar turini saqlab qolish bilan bog'liq muammolar bartaraf etilayotir. Ma'lumki, daraxt ekish va bog'

yaratish xalqimizning o'lmas qadriyati sifatida shakllangan. E'tibor bering, mamlakatimiz bo'yicha yoshi yuzdan oshgan qancha daraxt bor?! Bu ko'pchilik uchun qiziqarli. Hozirgacha shunday ulug'vor yoshdagi to'qqiz yuz tup daraxt mahalliy hokimliklar tomonidan ro'yxatga olindi hamda ularga «tabiat yodgorligi» maqomi berildi. Global ekologik jamg'arma granti asosida amalga oshirilgan «Farbiy Tyan-Shan tog'lari bioxilma-xilligini saqlash bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlararo loyihasi» bu borada amalga oshirilgan ulkan ishlardan biri bo'ldi, desak, sira mubolag'a bo'lmaydi.

Loyiha doirasida to'rt yil davomida ish olib borildi hamda atrof-muhitga ko'rsatiladigan salbiy ta'sir kamaytirildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda bir qator xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshirilgan mazkur loyiha nafaqat biologik xilma-xillikni asrash, balki o'simliklarning genetik xususiyatlarini saqlashga ixtisoslashgani bilan ham juda ahamiyatli bo'ldi. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan turli loyihalar natijasida inson ko'magiga muhtoj bo'lib turgan hayvon va o'simlik turlari aniqlanib, ro'yxatga olindi. Endi ana shu ro'yxat asosida O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi» ning yangi nashri yaratiladi. Shuningdek, mamlakatimiz hayvonot va nabotot olamining yangi kadastrini yaratish ishlari qizg'in davom ettirilmoqda. Jizzax, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida bu boradagi ishlar nihoyasiga yetkazildi. Xalqimiz azal-azaldan tabiatga alohida mehr ko'rsatib keladi. Keyingi yillarda bu boradagi ishlarga davlat miqyosida e'tibor qaratilayotgani esa masalani tez va soz hal etishda asosiy omil bo'lib kelayotgani hech kimga sir emas. Tabiat — inson hayotining azaliy ma'nosi. Zero, tabiatni asrash, uning yanada chiroy ochayotgan bag'rida yayrab yashash zavqiga ne yetsin?.

3.2 Bioxilma-xillik resurslaridan barqaror foydalanish

Tabiiy resurslar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, qayta tiklash hamda ulardan oqilona foydalanish borasida ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda biologik resurslarni muhofazalashning o'ziga xos huquqiy mexanizmi yaratilgan. “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi qonun qabul qilingani, O'zbekiston Bioxilma-xillikni saqlash to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga qo'shilgani va Bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilayotgani buning dalilidir. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilayotgani tufayli alohida muhofaza etiladigan hududlar kengayib, tabiatning nodir mavjudotlari va yashil boyligimizni asrab-avaylash, ko'paytirish imkoniyati oshmoqda.

O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Global ekologik jamg'arma hamkorligida hayotga tatbiq etilayotgan “Qo'riqxonalar misolida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi barqarorligini mustahkamlash” loyihasi turli innovatsiya vositalari yordamida

muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini mustahkamlash va samarali boshqarishni yo'lga qo'yishga qaratilgan. Ushbu loyihani amalga oshirilishi Bioxilma-xillikni saqlash to'g'risidagi konvensiya shartlarining bajarilishiga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi. Bunda qo'riqxonalarining chegaralari va muhofaza zonalarini qayta ko'rib chiqish, qo'riqxonalarining faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish rejalashtirilgan. Shuningdek, qo'riqxonalar atrofida yashovchi aholining turmush darajasini yanada oshirish, qo'riqxonalarga ko'rsatiladigan salbiy ta'sirlarning oldini olishga oid vazifalar belgilab olingan.

Tadbirda qo'riqxonalar hududini kengaytirish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish orqali ulardan oqilona foydalanish, loyiha doirasida hamkorlikni kuchaytirish bilan bog'liq vazifalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekistonning o'ziga xos xarakterli rivojlanishi o'tmishda ishlab chiqarishga nomuvofiq yondashish, ayniqsa qishloq xo'jaligiga nihoyat katta e'tibor berish ayni vaqtda atrof-muhit muhofazasi va resurslardan foydalanish, ularni tiklanishini ta'minlovchi usullarning yetarli darajada hisobga olmaslik bilan xarakterlanadi

Bunday vaziyat ularni barbod bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari, markazlashtirilgan rejalashtirish va boshqarishning yuqori darajasi bunga imkoniyat tug'diradi.

- O'zbekistonning biologik resurslarini ahvoli, boshqa malakatlarda bo'lgani kabi oxirgi 30-40 yil ichida keskin yomonlashdi, bu bir ekosistemalarni buzilishiga olib kelsa, boshqalarini jiddiy shikastlanishlariga, talofat ko'rishiga olib keldi va respublikaning umumiy ekologik barqarorligiga xavf tug'dirdi

- respublika aholisi tez o'sib borishini inobatga olgan holda, shuningdek boshqa omillarni nazarda tutib, mavjud ishlab chiqarish usullari va ularning o'zgarmay qolishliklari kelajakda O'zbekistonning talablarini qondira olmasligi aniq;

1 Bu usullar atrof-muhitga kuzatib bo'lmaydigan zarar yetkizadi

2 Allaqachon amaliy jihatdan ba'zi bir tur tabiiy resurslaridan foydalanish, masalan, suvdan foydalanish o'zining tabiiy chegarasigacha yetib kelgan

3 ishlab chiqarishning yangi usullari va sistemalaridan foydalanib respublika rivojlanishini davom ettirish va quyidagi talablarni qondirishi zarur: ishlab chiqarish nuqtai nazaridan samaradorlik va barqaror bo'lishi, ya'ni shunday bo'lishi kerakki, tabiiy va ijtimoiy bazaning faoliyat ko'rsatishi uzoq muddatlarda amal qilishi va barbod bo'lmasligi mumkin bo'lsin

- yuqorida bayon etilgan vaziyatlarda biologik resurslarning rivojlanishini haqiqiy ahamiyatiga hozirgi siyosatda va rejalarda o'zining to'liq aksini va hayotiy muhim ekologik jarayonlarini saqlab qolishda roli nuqtai nazardan, qaysiki ulardan qishloq xo'jaligi va ekologik sharoitlarda ham bog'liq, haqiqiy va potensial foydalanish nuqtai nazardan ham yetarli darajada baho berilmayapti

- Respublikaning barqaror rivojlanishiga erishish uchun bioxilma-xillikni muhofaza qilish va barqaror foydalanish maqsadlariga yetarli e'tibor berish, ularni esa milliy rivojlanish rejalari kiritish, tashkiliy va moliyaviy resurslar ajratish zarur bo'ladi

- Iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davri o'zida biologik resurslardan barqaror foydalanish va muhofaza qilishning rivojlantirishga potensial xavf tug'diradi, shu vaqtni o'zida muhofaza bo'yicha yangi tizimlar va yangi siyosat va yondashishlar ishlab chiqish va ulardan foydalanish imkoniyati ham mavjud bo'ladi

Shunday qilib, respublikaning kelajakda potensialini maksimal oshirish, barqaror rivojlantirish va uning asoslarini shakllantirish, bioxilma-xilliklarni muhg'ofaza qilish va undan barqaror foydalanish uchun tegishli moddiy va ma'naviy resurslarning ajratishni prioritet rivojlanishning kiritish lozim bo'ladi.



4-rasm Tabiiy resurslardan tejab foydalaning.(Yotib yesa tog' ham tugaydi)

Uzoq vaqtlar amal qilgan siyosat barqaror rivojlanishni ta'minlay olmadi, mamlakatda atrof - muhit muhofazasi masalalariga va ta'lim tizimiga tegishli munosabatni belgiladi. Masalan, Respublika yuqori ta'lim darajasiga mavjudligiga qaramasdan , unda "Orol krizisi" kabi fojiali voqiyee - hodisalar sodir bo'ldi, asosiy biologik jarayonlar mohiyati va rolini ongli ravishda tushunishni, xususan hukumat darajasidagi mas'uliyat, aholi o'rtasida va ishlab chiqarish sektorini boshqarish zveno o'rtasida yo'qligi tufayli sodir bo'ladi. Oliy ta'lim tizimida asosiy e'tibor ishlab chiqarishga yoki sof ilmiy izlanishlarga qaratilib, yetarli darajada ekologik menejment masalalari ishlab chiqarilmasdan, boshlang'ich va o'rta ta'lim tiximlarida esa ekologik jarayonlar va ularni mamlakat taraqqiyoti muammolari bilan bog'lab tushunish yetarli e'tibor berilmay keldi.Utmishda mahalliy aholi va jamoatchilikni bioxilma - xillikni asrashda ishtirok, axborotning yetishmasligi siyosiy va qonunchilik borasida qiyinchiliklar tufayli chegaralangan edi, qaysiki nodavlat tashkilotlari bunga ham duch kelardilar.

Barqaror foydalanish muammolarini tahlili

O'zbekiston umuman olganda agrar mamlakat bo'lib, u ko'proq darajada muhit sifati bilan bog'liq bo'ladi. Biroq ilgari biologik resurslarning to'g'ridan

- to'g'ri foydasi, ekologik jarayonlarni barqarorlashtirish nuqtai nazaridan ham va uning respublikaning umumiy rivojlanishi uning alohida o'rni, roli nuqtai nazaridan ham yetarlicha baho berilmasdi. Bunday holat Orol fojiasi singari vaziyatni paydo bo'lishiga ko'maklashadi.

Biologik resurslardan foydalanish

O'zbekistonda biologik resurslardan foydalanish ovda, qimmatli dorivor va oziqali o'simliklar terishda namoyon bo'ladi. Biroq hamon biologik resurslardan barqaror foydalanishning to'liq iqtisodiy qimmatini va respublikaning potensial imkoniyatlarini batafsil baholash mavjud emas. Halqaro miqyosdagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bu sektor agar uni ratsional rivojlantirish sharoitlari yaratilsa, mamlakat rivojlanishini tezlashtirishda va katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

3.3 Qo'riqxonalar misolida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi. barqarorligini ta'minlash

2014 yil 10 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya resurslari qo'mitasi hamda Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'ini jalb qilgan holda «Mamlakatimiz milliy bog'lari va qo'riqxonalari» mavzusida matbuot anjumanini tashkil etildi.(5-Rasm)

Matbuot anjumanida Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya resurslari qo'mitasi, Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'i mas'ul rahbar va xodimlari, manfaatdor davlat va jamoat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Matbuot anjumanining maqsadi, mamlakatimizning milliy bog'lari va qo'riqxona, ularda amalga oshirilayotgan ishlar, shu bilan birga mazkur hududlarda olib borilishi lozim bo'lgan amallar haqida masalalrni muhofakama qilish va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ushbu masalalarni keng jamoatchilik yetkazishdan iborat bo'ldi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sifatida O'zbekistonda ayni vaqtda 9 ta davlat qo'riqxonalari, 2 ta milliy bog', 1 ta ekomarkaz, 1 ta biosfera rezervati, 10 ta davlat buyurtmaxonalari, 5 ta tabiat yodgorligi hududlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu hududlarda milliy hamda xalqaro "Qizil kitob" larga kiritilgan, yo'qolish ehtimoli bo'lgan nabadot va hayvonot turlari davlat muhofazasiga olingan.



5-rasm Qo'riqxonaning hozirgi holati

Mazkur tizimda davlat tabiat qo'riqxonalari asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat qo'riqxonalari hududlari qat'iy muhofaza rejimi ostida bo'lib, unda yil davomida yovvoyi tabiatni muhofaza qilish borasida kuzatuvlar olib boriladi. Qo'riqxonalarning asosiy maqsadi qimmatli tabiiy ob'yektlar, landshaftlar, noyob va qimmatli o'simliklar hamda hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdir. Bugungi kunda qo'riqxonalarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar aholi o'rtasida muhofaza etiladigan yovvoyi tabiat boyliklarining muhimligini anglash, Yer yuzidagi hayotni saqlashda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning o'rni bilan bog'liq keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga da'vat etilgan.

Qator mamlakatlar bioxilma-xillikni muhofaza qilishda Milliy bog'larni rivojlantirishga xissalarini qo'shmoqdalar.

2011 yilning 26 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 243-sonli Qarori bilan 68717, 8 ga maydonga ega Quyi-Amudaryo davlat biosfera rezervati tashkil etildi. Mazkur rezervat "Baday-to'qay" davlat qo'riqxonasi bazasida tashkil etildi. Qo'riqlash hududi 11568, 3 ga bo'lib, qat'iy muhofaza rejimi ostidagi hudud hisoblanadi.

Biosfera rezervati qo'riqxona va buyurtmaxona vazifalarini bajaruvchi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toifasiga kiradi. U o'z faoliyatida biologik xilma-xillik hamda biologik resurslardan fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar manfaatlari yo'lida ulardan barqaror foydalanishdek faoliyatni o'zida mujassam etadi.

Biosfera rezervatlari nafaqat u joylashgan hududda istiqomat qiluvchi aholining tabiat bilan uyg'un holatda rivojlanish imkonini beradi, balki jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston Respublikasining biologik xilma-xilligini muhofaza qilish bo'yicha Milliy strategiyasi va chora-tadbirlar rejasida o'z aksini topgan.

O'tkazilgan matbuot anjumanida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi vakillari tomonidan O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari haqida, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi Qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaligi boshqarmasi tizimidagi Surxon davlat qo'riqxonasi vakili tomonidan "Surxon davlat qo'riqxonasi. Idmiy tadqiqotlar" haqida, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya resurslari qo'mitasi vakili tomonidan "Kitob Davlat geologiya qo'riqxonasi zaminimizning 460 million yillik tarixi nighida" haqida va Toshkent viloyati hokimligi qoshidagi Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'i vakili tomonidan "Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'i" haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari xodimlariga yetkazildi,

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda O'zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish sohasida qator xalqaro loyihalar amalga oshirilayotganligi e'tirof etildi. Bunday loyihalarga "Qo'riqxonalar misolida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi barqarorligini ta'minlash", "O'zbekiston neft va gaz tarmog'iga bioxilma-xillikni saqlash tamoyillarini joriy qilish", "2011-2020 yillarda O'zbekistonda Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning Strategik rejasini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash uchun biologik xilma-xillik sohasida milliy rejalashtirish" va boshqalar kiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashabbusi bilan chop etilgan "O'zbekiston Qo'riqxonalarining tirik javoxirlari" kitob-fotoalboming taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu fotoalbomda mamlakatimiz qo'riqxonalarida Qizil kitobga kiritilgan va doimiy muhofazada bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi tadbirlar sababli mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organlari, jamoatchilik tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyatlari respublikaning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining yagona o'zaro bog'liqlik tizimini tashkil etishi lozim.

Xulosa

O'zbekiston hukumati ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan qator strategik hujjatlarni ishlab chiqdi va qabul qildi

Bular: Atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha Milliy harakat dasturi;

2000-2010 yillarga mo'ljallangan davrda qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlash davlat dasturi.

Bundan tashqari, Chiqindilarni boshqarish bo'yicha milliy dastur va harakat rejasi ishlab chiqish bosqichida.

Toshkentda mustaqillik yillarida mamlakatimizda ekologik muvozanatni ta'minlash borasida erishilgan natijalar va BMTning 2012 yilda bo'ladigan barqaror rivojlanish bo'yicha "Rio+20" konferensiyasiga tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan davra suhbatini tashkil etildi.

O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Iqtisodiyot vazirligi, Iqtisodiy tadqiqotlar markazi va BMTning mamlakatimizdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etgan tadbirda yurtimizdagi vazirlik, idora, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, xalqaro tashkilotlar vakillari, olimlar va mutaxassislar ishtirok etdi.

O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi N. Umarov va boshqalar Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda ekologik muammolarning inson salomatligi va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sirlarini kamaytirish borasida olib borilayotgan izchil ishlar o'z samaralarini berayotganini ta'kidladi.

Yurtimizda bebaho tabiiy resurslar muhofazasini ta'minlash, global va milliy miqyosdagi ekologik muammolarning salbiy ta'sirlarini yumshatish borasida milliy harakat rejasi asosida bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida havoga chiqarilayotgan zararli moddalar ikki, suv havzalariga oqovalarni tashlash ikki yarim barobar kamaydi. Ozonni yemiruvchi moddalarni qisqartirishga erishilmoqda. Daryolar va yer osti suvlarini muhofazalash, alohida muhofaza etiladigan hududlar maydonini kengaytirish, biologik zaxiralarni asrash, ekologik ta'limni rivojlantirish, Orolbo'yidagi ekologik muhitni barqarorlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham o'z samaralarini berayotir.

Mamlakatimizda ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalar asosida O'zbekiston zimmasidagi majburiyatlarni bajarish ham doimiy e'tiborda. Jumladan, havoning ozon qatlamiga zarar yetkazadigan moddalardan foydalanishni bartaraf etish maqsadida Ozon ofisi tashkil etildi va bu jabhada qator ilmiy-amaliy loyihalar bajarilmoqda. Chiqindilarni boshqarish, bioxilma-xillikni asrash milliy strategiyalari va harakat dasturlari, tabiiy energiya manbalaridan foydalanish loyihalari, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonda boy tabiiy zaxiralar salohiyatidan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofazalashga katta e'tibor qaratilmoqda, – deydi BMTning Yevropa va MDH mamlakatlari mintaqaviy byurosi direktori o'rinbosari Yens Vandel. – Iqlim o'zgarishining oldini olish, biologik zaxiralarni muhofazalash, energiya resurslarini tejash, iqtisodiyot tizimlarida sof rivojlanish mexanizmlarini

joriy etish kabi yo‘nalishlardagi loyihalar e‘tiborga molik. Bunday tadbirlar xalqaro hamjamiyat oldida turgan global ekologik muammolarni hal etish va tabiat musaffoligini asrashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish sohasida qator xalqaro loyihalar amalga oshirilayotganligi e‘tirof etildi. Bunday loyihalarga "Qo‘riqxonalar misolida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi barqarorligini ta‘minlash", "O‘zbekiston neft va gaz tarmog‘iga bioxilma-xillikni saqlash tamoyillarini joriy qilish", "2011-2020 yillarda O‘zbekistonda Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiyaning Strategik rejasini amalga oshirishda qo‘llab-quvvatlash uchun biologik xilma-xillik sohasida milliy rejalashtirish" va boshqalar kiradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tashabbusi bilan chop etilgan "O‘zbekiston Qo‘riqxonalarining tirik javoxirlari" kitob-fotoalboming taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Ushbu fotoalbomda mamlakatimiz qo‘riqxonalarida Qizil kitobga kiritilgan va doimiy muhofazada bo‘lgan o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi tadbirlar sababli mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organlari, jamoatchilik tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyatlari respublikaning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining yagona o‘zaro bog‘liqlik tizimini tashkil etishi lozim.

Hozirda qishlooq xo‘jaligini rivojlanishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik natijasida kelib chiqadigan va tabiiy yashash joylarini tanazzulga uchrashi havfining ortishi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimiga biologik xilma-xillikni samarali muhofaza qilish kafolatini bermaydi. Mavjud tur va ekotizimlarni saqlab qolish, mahalliy aholiga tabiiy resurslardan samarali foydalanish kafolatini berish uchun muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarishni va mavjud qonunchilikni takomillashtirish zarur.

Maqsadlar

Loyihaning maqsadi qo‘riqxonalarni samarali boshqarishning yangi usullarini ishlab chiqish va namoyish etish orqali O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini mustaxkamlashdir.

Kutilayotgan natija

Loyiha qo‘riqxonalarni boshqarishda samarali, rentabelli va yashash joylarini qayta tiklash usullarini ishlab chiqib, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga quyidagi 3 asosiy natijalar orqali erishadi:

1. O‘zbekiston muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini kengaytirish bo‘yicha istiqbolli dastur tayorlash;

2. Boshqaruv samaradorligini takomillashtirishni va kengaytirishni ta‘minlash uchun institutsional va individual salohiyatni mustahkamlash;

3. Qo‘riqxonalar muhofaza zonalarida yangicha usullarni qo‘llash orqali boshqaruv samaradorligini mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekistonda atrof-muhit vaziyati va tabiiy resurslardan foydalanish: 2000-2004 yillarda faktlar va hisobotlar. Statistika byulleteni. Toshkent. 2006.
2. O'zbekiston Respublikasida sahrolanishga qarshi kurash bo'yicha Milliy choralar dasturi, Toshkent 1999.
3. O'zbekistonning aholi farovonligini yuksaltirish strategiyasi. 2008-2010 yillar uchun to'liq strategik hujjat. 2007 yil 29-avgustda qabul qilingan. Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy bioxilma-xillik strategiyasi. Toshkent, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy ekologik salomatlik choralar rejasi. Toshkent, 1999.
6. O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi Toshkent, 2006.
7. O'zbekiston Respublikasi. Tabiat muhofazasi bo'yicha Davlat Qo'mitasi. O'zbekiston atrof-muhit muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi (AMMCHT). Toshkent, 1998.
8. Tabiat muhofazasi bo'yicha Davlat Qo'mitasi va BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi. O'zbekistonning indikatorlarga asoslangan ekologik profile. Toshkent 2008.
9. Akramov 3. M., Rafikov A.A., Proshloye, nastoyasheye i budusheye Aralskogo morya, T., 1990.
10. Nig'matov A.N., O'zbekiston Respublikasining ekologik huquqi, T., 2004.
11. Rafikov A.A., Geoekologik muammolar, T., 1997.
12. To'xtayev L., Hamidov A., Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish, T., 1994.
13. G'ulomov P.N., Inson va tabiat, T., 19
14. Yo'ldoshev H. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. 1997

Elektron darsliklar va boshqa elektron o'quv materiallari

1. <http://www.Environment.ru>.
2. <http://www.Ecologye.ru>.
3. <http://www.Envirion.com>.
4. <http://www.Ecolog.com>.
5. <http://www.clin.procl.Com>.
6. www.UzReferat.ucoz.net